



TOSHKENT VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI INVESTITSIYA VA QURILISH STATISTIKASI BO'LIMI

2019 YILNING YANVAR-MART
OYLARIDA QURILISH ISHLARI

Raqamlar:

Qurilish ishlari

hajmi -

722,7 mlrd.so'm

Yirik pudrat
tashkilotlari ulushi

- 15,1 %

Kichik tashkilotlar
va mikrofirmalar

ulushi -

39,4 %

Norasmiy sektor
ulushi –

45,5 %

Joriy yilning yanvar-mart oylarida Toshkent viloyatida jami 722,7 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 117,1 % ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik pudrat tashkilotlari tomonidan 109,1 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 15,1% hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 111,5 % ni


tashkil etdi.

Kichik korxonalar va tashkilotlar, mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 39,4 % yoki 284,9 mlrd.so'm to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 123,0 %ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 45,5 % yoki 328,7 mlrd.so'm to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 114,0 %ni tashkil etdi.

Yirik pudrat tashkilotlari	<ul style="list-style-type: none">• hajmi - 109,1 mlrd.so'm• o'sish sur'ati -111,5 %
Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar	<ul style="list-style-type: none">• hajmi - 284,9 mlrd.so'm• o'sish sur'ati - 123,0 %
Norasmiy sektor	<ul style="list-style-type: none">• hajmi -328,7 mlrd.so'm• o'sish sur'ati - 114,0%



IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA QURILISH ISHLARI



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.


Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi 575,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi nisbatan 158,4 mlrd so'mga ko'paygan.

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 64,7 mlrd .so'mni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 26,8 mlrd. so'mga ko'paygan.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi esa 82,6 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yil davriga nisbatan 25,2 mlrd. so'mga ko'paygan.



Yanvar-mart oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi




Yanvar- mart oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 15,6 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,4 % ga kamaydi. Bunda kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 27,3 % (1,4 % ga kamaydi) va norasmiy sektorning ulushi 57,1 % ni (2,7 % ga ko'paydi) tashkil etdi.

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish ishlari bo'yicha yirik pudrat tashkilotlarining ulushi 29,4 % ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 7,6% ga kamaydi. Shuningdek, kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 70,6 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 7,5 % ga ko'paydi .

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida kichik tashkilotlar va mikrofirmalar hissasiga 99,2 % to'g'ri kelib o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,6 % punktga kamaydi.



2019 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha qurilish ishlari



Qurilish ishlari hajmida hududlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining tumanlar bo'yicha tarkibida Zangiota tumani, yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda bajarilgan qurilish ishlari hajmi yanvar- mart oyida 122,0 mlrd.so'm yoki o'tgan yilga nisbatan 115,2 %ga bajarildi.


	Jami		
	Bajarilgan qurilish ishlari hajmi (mlrd.so'm)	2018 yil yanvar-martga nisbatan % da	Jami qurilish ishlari hajmida hududlarning ulushi
Toshkent viloyati	722,7	117,1	100,0
Nurafshon shahri	22,0	115,8	3,1
Olmaliq shahri	30,5	114,4	4,2
Angren shahri	25,7	130,7	3,6
Bekobod shahri	26,0	115,5	3,6
Ohangaron shahri	18,8	116,1	2,6
Chirchiq shahri	26,0	127,8	3,6
Yangiyo'l shahri	10,1	113,2	1,4
Oqqo'rg'on tumani	15,3	113,9	2,1
Ohangaron tumani	20,9	112,1	2,9
Bekobod tumani	21,2	114,9	2,9
Bo'stonliq tumani	47,0	130,5	6,5
Bo'ka tumani	12,5	110,9	1,7
Quyichirchiq tumani	14,1	114,5	1,9
Zangiota tumani	122,0	115,2	16,9
Yuqorichirchiq tumani	48,8	114,5	6,8
Qibray tumani	54,4	114,8	7,5
Parkent tumani	32,8	115,3	4,6
Piskent tumani	14,0	114,7	1,9
O'rtachirchiq tumani	33,7	120,1	4,7
Chinoz tumani	20,4	115,8	2,8
Yangiyo'l tumani	21,7	111,3	3,0
Toshkent tumani	84,8	117,5	11,7


Shuningdek, qurilish ishlari hajmining eng yuqori darajasi quyidagi hududlarda kuzatildi:

- Toshkent tumanida (84,8 mlrd. so'm yoki 117,5 %), Qibray tumanida (54,4 mlrd. so'm yoki 114,8 %), Yuqorichirchiq tumanida (48,8 mlrd. so'm yoki 114,5 %) va Bo'stonliq tumanida (47,0 mlrd. so'm yoki 130,5 %) bajarilgan.


Qurilish ishlari hajmining eng past darajasi quyidagi hududlarda kuzatildi:

Yangiyo'l shahrida (10,1 mlrd. so'm yoki 113,2 %), Bo'ka tumani (12,5 mlrd. so'm yoki 110,9 %) va Piskent tumani (14,0 mlrd. so'm yoki 114,7 %) qurilish-pudrat ishlari amalga oshirildi;





2019 yilning yanvar- mart oylarida qurilish ishlari umumiy hajmida hududlarning ulushi (umumiy hajmga nisbatan %da)



Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlarining katta qismi Zangiota tumanida bajarilgan bo`lib, viloyatda bajarilgan jami qurilish ishlarining 16,9 %ini, Toshkent tumanida 11,7 %ni va Qibray tumanida bajarilgan qurilish ishlari esa 7,5 %ni tashkil etdi.

Viloyatda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi bo`yicha past ko`rsatkichlar: Yangiyo`l shahrida bu ko`rsatkich eng past 1,4 %ni tashkil etdi. Bo'ka tumani 1,7 %ni va Piskent tumanda 1,9 %dan tashkil etganligini kuzatishimiz mumkin.

Qurilish ishlari mavsumining boshlanishi bilan hududlarda bajariladigan qurilish ishlarining hajmi ortib, ularning viloyatdagi ulushi ham o`zgarib boradi.



“Investitsiya va qurilish statistikasi” bo’limi

Nashirga mas’ul: B. Djavliyev

Tel.: 230-86-70, (71)